

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Tursunova Dilso'z O'ralovna

Qarshi xalqaro universiteti

"Filologiya va tillarni o'qitish"

kafedrasi o'qituvchisi

Yunusova Feruza

Qarshi xalqaro universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili darslarini samarali o'tkazishdagi ijodkorligi, o'quvchilar faoliyati, dars o'tishni va uning tushunarligini oshirish metodlari va usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Metod, interfaol, interaktiv, dars, o'yinlar, piramida, faollik, jamoa, savodxonlik, zamonaviylik.*

Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda poydevor bo'lib xizmat qiladigan muhim bosqichdir. Ayniqsa, ona tili darslarida bu jarayon ikki barobar ahamiyat kasb etadi. Chunki bu fan orqali o'quvchilarda savodxonlik, nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash, o'qish va yozish malakalari rivojlanadi. Shu boisdan boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni samarali qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivolanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish – bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limiy darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi. Hozirgi davrda ta'lim jarayonida o'qitishning yangi, zamonaviy metodlari barcha

maktablarda keng qo'llanilmoqda. Ta'limda bu kabi metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keldi. Ta'lim jarayonida har bir darsning didaktik vazifasiga mos ravishda metodlardan foydalanish maqsad muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini o'zgartirmagan holda, ta'limning samaradorligini oshirishda o'qituvchidan dars jarayonini mavzuni o'quvchilar to'liq o'zlashtirish uchun qaratilgan e'tibor sababli yangidan yangi rivojlantiruvchi metodlar ishlab chiqilmoqda va shu sababli ta'limda interaktiv, interfaol va energiyazer tushunchalari keng miqyosda qo'llanilmoqda. Darsning mazmunini ochib berishga qaratilgan ta'lim jarayonida asosan, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va o'quvchilarning amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bundan tashqari dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga, erkin fikrlashga undaydi.

Metod shunday tanlanishi kerakki, unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. "Aqliy hujum", "Savol-javob", "Klaster usuli" va shunga o'xshash ba'zi metodlarimiz doimiy ravishda foydalanilganligi sababli ular an'anaviylashib bormoqda.

Keng qo'llaniladigan metodlar – "Bayon qilish", "Aqliy hujum", "Klaster", "Taqqidmot", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Dars jarayonida mavzuni o'quvchilar tomonidan tushunganlilik darajasini aniqlash va o'tilgan mavzuni so'rash qismida "A3 formati", "Zinama-zina", "Kungaboqar" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida "Bayon qilish", "Insert" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash uchun "Rangli kartochkalar",

“Topshiriqni davom ettir”, Xotira testi”, “Zinapoya savollar” kabi grafik tashkil etuvchilar, uyga vazifa berish oldi “BBB” va “Emojilar” orqali ularga darsni tashkil etilishi haqidagi fiklari bilan qiziqish, eng so’ngida esa uyga vazifa berish uchun “Muammo asosida topshiriq”, “Savol yoz javob ol”, “Tadqiqot topshirig’i”, “Ijodiy topshiriq” kabi metodlarini qo’llash dars samaradorligini ta’minlab, o’quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanib dars tashkil etish ham mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Multimedia vositalari, interaktiv doska, elektron darsliklar va taqdimotlar darslarni yanada qiziqarli va jonli qiladi. Masalan, matnni eshitish, videoroliklar asosida tahlil qilish o’quvchilarning eshitish va ko’rish orqali idrok qilish qobiliyatini kuchaytiradi. QR-kodlar va mobil ilovalar, savodxonlikka oid topshiriqlar, testlar, lug’at o’yinlari uchun mobil ilovalardan foydalanish o’quvchilarni rag’batlantiradi.

Virtual darslar va onlayn platformalar: Ziyonet, EduMarket, UzEdu va boshqa platformalar orqali o’quvchilar qo’shimcha mashqlarni bajara oladi, bu esa individual yondashuvni ta’minlaydi. Gamifikatsiya (o’yinlashtirish) elementlari: ona tili darslarini kichik o’yinlar, musobaqalar, viktorinalar orqali tashkil etish bolalarning darsga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi va bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo’lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi uchun bir yo’nalish berish, ularni qiziqishini cheklamasdan faqat to’g’ri va maqsadli yo’naltirishga ham erishsa bo’ladi. Natijada o’quvchida ishonch, qat’iyat, qiziqish paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o’quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi zarur. O’quvchilarga har darsda bir xil dars o’tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo’lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg’ulotlari jarayonida dam olish daqiqalarini o’tkazishda turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Masalan, “Soʻz maʼnosi” mavzusini oʻrganish uchun xattaxtaga turli maʼnodagi soʻzlarni yozish yokida bir soʻzga qoʻshimcha qoʻshilganda asosga qanday maʼno yuklashini tushuntirish uchun “Soʻzlar piramidasi” metodidan foydalanish mumkin. Namuna $\text{sinf} + \text{xona} = \text{sinf} \times \text{xona}$, $\text{sinf} + \text{imiz} = \text{sinf} \text{imiz}$, $\text{sinf} + \text{xona} + \text{ga} = \text{sinf} \times \text{xona} \text{ga}$ shunday davom etadi. Bu metoddan oʻquvchilarda oʻtilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlaslari va soʻz boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa boʻladi.

“Soʻzlar piramidasi” metodi. Oʻquvchilarning asosiy tushuncha yoki mavzu atrofida fikrlarini bosqichma-bosqich aniqlashtirish va kengaytirishga asoslangan metod. Bu usulda oʻquvchi kichik fikrdan katta, umumlashtirilgan fikrga oʻtadi. Yozma nutqni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va asosiy soʻzlarni tanlash koʻnikmalarini shakllantiradi. Yosh: 1–4-sinf oʻquvchilari (taxminan 7–10 yosh). Har bir yosh bosqichida metodning murakkabligi oshirib borilishi mumkin (masalan, 1-sinfda 3-4 pogʻona, 4-sinfda 6-7 pogʻonali piramida). Metodning afzallik tomonlari:

- Soʻz yasallishini tushunishga yordam beradi – soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻzlar yasallishini amaliy koʻrsatadi.
- Imloviy koʻnikmalarni mustahkamlaydi – oʻquvchilar har bir yangi soʻzni yozishda tovushlar tarkibini sinchiklab oʻrganadilar.
- Leksik zaxirani boyitadi – har bir yangi pogʻonada yangi soʻzlar oʻrganiladi.
- Ijodkorlikni rivojlantiradi – soʻz tanlash, izchil yozish, piramida qurish oʻquvchini faol fikrlashga undaydi.
- Vizual yod olishga qulay – rasmiy koʻrinishda taqdim etilishi bolalarning eslab qolishini yengillashtiradi.
- Jamoaviy va yakka tartibda qoʻllanilishi mumkin – guruh bilan ishlashda ham, individual topshiriq sifatida ham qoʻllaniladi.

“Soʻzlar piramidasi”ning tuzilishi quyidagicha:

- Tepada: 1 asosiy kalit soʻz

- Ikkinchi qatorda: 2 ta asosiy xususiyat
- Uchinchi qatorda: 3 ta misol yoki tushuntiruvchi fikr
- To'rtinchi qatorda: 4 ta so'zdan iborat xulosa
- Qo'llanilishi:
- Tayyorlov bosqichi:
- O'qituvchi asosiy so'zni tanlaydi (masalan: oy).
- So'z doskada yoki kartochkada yoziladi.
- Amalga oshirish:
- O'quvchilar ushbu so'zga har safar bir harf yoki qo'shimcha qo'shib yangi so'z hosil qiladi:
- Gul
- Gulla
- Gulchi
- Guldon
- Gulzor
- Gulli

So'zlar har bir satrda yozilib, *piramida shaklida* joylashtiriladi.

Mustahkamlash:

- O'quvchilar har bir so'zga gap tuzadi.
- Guruhda kim eng uzun piramida yasasa, sovrin beriladi.
- Yozma topshiriqqa aylantiriladi: piramidani chizib, so'zlarni yozish.

So'zlar piramidasi quyidagicha ko'rinadi:



“Aylanma stansiyalar” metodi. Ushbu metodda o‘quvchilardan guruhlar shakllantiriladi. Har bir guruhga kichik topshiriq (test, so‘z tahlili, gap tuzish beriladi. Bu metodni 2-sinfdan boshlash qo‘llash mumkin. Ushbu metodning afzallik tomoni shundaki o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganadilar, topqirlik va chaqonlik darajalari ham oshadi. Kamchilik tomoni esa agar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilim darajasi bo‘yicha to‘g‘ri guruhlanmasa o‘quvchilarda so‘nishni ham keltirib chiqarishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga, o‘qituvchining o‘zi ustida ishlashi, dars samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning yangi qobiliyatlarini namoyon qilish uchun ko‘maklashuvchi yordamchilardir. Dars davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda shubhasiz o‘zining samarasini ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash orqali ona tili va boshqa darslarda ham o‘z natijasini berishi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarining fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga, jamoaviy ishlashga, axborot texnologiyalaridan samarali va zarur vaqtda qanday foydalanishi mumkunligi haqidagi ma‘lumotlarga erishish, notanish vaziyatlarda qo‘llay olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: “O'qituvchi” 1992
2. S.Matchonov va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish – T.: “Yangiyul polygraph service” 2008
3. Yu.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari – T.: “O'qituvchi” 1990
4. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev “Ona tili o'qitish metodikasi” – T.: “Bayoz” 2024
5. N.Abduraxmonova, Z.Otajonova “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar” –Qo'qon universiteti “Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya” 68-71-sahifalar